

ДОРИВОР ӰСИМЛИКЛАРНИ АСОСИЙ КАСАЛЛИКЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАРҚАЛИШИ.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13499618>

Расулова Мадина Шухратовна

Катта илмий ходим

Исамиддинов Илхом Тулаевич

Етакчи илмий ходим

Ӱсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти

Annotasiya

Ushbu maqolada viloyat xo'jaliklarida etishtirilayotkan dorivor o'simliklarning asosiy kasalliklari va ularning tarqalishi, tadqiqot natijalariga ko'ra o'simliklarning kasalliklarini tarqalishining natijalari qayd etilgan.

Kalit so'zlar

yalpiz, kasallik, o'simlik, fuzarioz ildiz chirish, un-shudring, ekologiya, organik, tirnoqgul, na'matak.

Аннотация

В данной статье описаны основные болезни лекарственных растений, выращиваемых в хозяйствах региона, и их распространение, результаты исследований по распространению болезней растений.

Ключевые слова

мята, болезни, растение, корневая гниль при фузариозе, мучнистая роса, экология, органика, календула, шиповник.

Annotation

This article describes the main diseases of medicinal plants grown in the farms of the region, and their distribution, the results of research on the spread of plant diseases.

Key words

mint, diseases, plant, root rot in fusarium, powdery mildew, ecology, organics, calendula, rosehip.

Kirish. Respublikamizda yil sayin dorivor o'simliklar maxsulotiga extiyoj o'sib borishi natijasida ularning xom-ashyosini tayyorlash miqdori ham ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida kator dorivor o'simliklarning zaxiralari ko'p

o'sadigan joylarida kamayib ketishiga, natijada ularning xomashyosini tayyorlanishini keskin chegaralanishi yoki butunlay to'xtatilishiga olib kelmokda. Dorivor o'simliklar zahiralaridan oqilona foydalanishning yagona yo'li - ularni madaniylashtirish va sanoat plantatsiyalarida yetishtirishni yo'lga qo'yishdir. Xozirgi kunda tabiiy holda o'sayotgan dorivor o'simliklarni zaxiralari insonlar ta'sirida kamayib bormokda. Buning o'rnini to'ldirish va xalkimiz extiyojini qondirish maksadida dorivor o'simliklar turlarini ko'paytirish va ularni O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sug'oriladigan mintakalarda ekib o'stirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekistonda farmasevtika sanoatini dorivor o'simliklar xom-ashyosi bilan ta'minlash maqsadida yaqin yillar ichida dorivor o'simliklarni ekib o'stiradigan fermer va ixtisoslashgan xo'jaliklarni tashkil kilish va ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklardan ko'prok dorivor moychechak, dorivor valeriana, na'matak, dorivor tirnoqgul, arslonquyruq kabi dorivorlardan ekstrakt, nastoykalar va kasalliklarini davolovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Respublikamiz shunday geografik hududda joylashganki, har bir o'simlik uchun sharoit o'ta qulay hisoblanadi. Har qanday o'simlik pishib etilishi uchun issiqlik manbai o'ta zarur. Chunki foydali issiqlik yig'indisi toplash har bir o'simlik, qishloq xo'jalik ekiniga kerak.

Moychechak turlari astradoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae* (*Compositae*) oilasiga mansub bo'lib, bo'yи 15–40 sm keladigan bir yillik o't o'simliklar hisoblanadi. Poyasi tik o'sadi, sershox bo'ladi.

Barglari ingichka chiziqsimon, o'tkir uchli segmentlarga teki marta patsimon ajralgan bo'lib, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rashgan. Gullari uzun bandli (yashil moychechakniki kalta bandli), poyasi bilan shoxlari uchidagi savatchaga joylashgan. Savatchaning tilsimon gullari ok rangli (yashil moychechakda tilsimon gullar bo'lmaydi), naychasimon gullari sarik, yoki yashil rangli bo'ladi. Moychechakning mevasi ~pista hisoblanadi. Moychechak may oyidan boshlab kuzgacha gullaydi va mevasi yetiladi. Tibbiyotda uning ikki turi ishlatiladi – Dorivor moychechak (romashka lekarctvennaya,) - *Matricaria recutita* L. va Xushbuy moychechak (romashka dushistaya) – *Matricaria matricarioides* Porter.



Dorivor moychechak (Matricaria recutita L.)

Dorivor tirnoqgul yoki kalendula (*Calendula officinalis*) - *Astradoshlar* (murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб бо'либ, бо'зи 30-60 см га yetadigan ko'п yillik o't o'simlik hisobланади. Poyasi tik o'sadi, yaxshi shoxlangan. Barglari cho'ziq-teskari tuxumsimon, sertuk bo'lib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida ketma-ket o'rнashgan, poyasining yukori kismidagi barglari bandsiz, tuxumsimon yoki nishtarsimon. Gullari poyasi bilan shoxlari uchidagi savatchaga joylashgan. Tilsimon gullari 2-3, ba'zan 15 qator, sarik, to'qsariq yoki zarg'aldoq rangli. Dorivor tirnokgul iyun oyidan kech kuzgacha gullaydi, mevasi iyuldan boshlab yetiladi. Xalq tabobatida tirnokgulning gulto'plami ishlataladi. Gullari qiyg'os ochilgan vaktda, qisqa bandli yoki bandsiz qilib yig'ib olinadi va salqin yerda quritiladi.



Dorivor tirnoqgul yoki kalendula (Calendula officinalis)

Dorivor Valeriana - *Valeriana officinalis L.* **valerianadoshlar** - *Valerianaceae* oиласига мансуб бо'либ, buyi 2 m gacha yetadigan ko'п yillik o't o'simlik. Ildizpoyasidan birinchi yili ildiz oldi to'p barglari, ikkinchi yildan boshlab poyasi o'sib chiqadi. Poyasi tik o'sadi, shoxlanmagan yoki yukori qismi shoxlangan. Barglari oddiy, 4-11 juft bo'lakchalardan iborat toq patli ajralgan bo'lib, poyada

bandlari (ildizoldi barglari uzun bandli), yuqoriga ko'tarilgan sari bandi qisqarib boradi, ular barg bandlari yordamida qarama-qarshi o'rnashgan. Barg bo'lakchalari chiziqsimon nishtarsimon yoki tuxumsimon, yirik tishsimon qirrali. Oq yoki pushti rangli, xushbuy, mayda, besh bo'lakli gullari yirik. Mevasi cho'ziq tuxumsimon, och qo'ng'ir rangli pista xisoblanadi. Dorivor valeriana may-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyun-sentyabrda yetiladi.



Tadqiqot materiallari va uslubi. Dorivor o'simliklar ekilgan dalalarda kasallik yo'naliishli kuzatuvlar, hisob-kitoblar orqali aniqlanadi. Dorivor o'simliklar asosiy kasalliklar bilan bir tekis kasallanganda namunalar diagonal bo'yicha olinadi. Agar kasallik notekis tarqalgan bo'lsa, namunalar bir necha parallel usulida shaxmat bo'yicha olinadi. Bitta daladan 20 ta joydan 10-20 tup ko'rildi. O'choqli kasallikkarni hisob-kitob qilishda fuzarioz, un shudring, alternarioz, septorioz, zang kasalliklari bilan zararlanganda maydonlar o'lchanadi va umumiy maydonga nisbatan foizi aniqlanadi. (K.M.Stepanov, A.E.Chumakov, 1974, VIZR, 2004). Kasallik tarqalishi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$P = \frac{n(x100)}{N}$$

P- kasallikni tarqalishi, %.

n- namunadagi kasallangan o'simlik soni.

N- namunalardagi umumiy o'simlik soni.

Касаллик ривожи учун қўйидаги формула (Чумаков,1974)

$$\sum (a \cdot b)$$

$$R = -----$$

$$N$$

$$\sum (a \cdot b) - o'simlik soni yig`indisi$$

$$a - zasarlanish$$

b -ball

N – umumiy o`simliklar soni

Tahlil va natijalar. Dorivor o'simliklar yetishirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda yo'nalishli ilmiy-tadqiqot kuzatuvlari olib borildi. Asosiy maqsad dorivor o'simliklardagi asosiy kasalliklarini tarqalishini o'rganish talabi bajarish edi. Yo'nalishli kuzatuvlar Respublikamizning dorivor o'simliklar yetishtiriladigan viloyatlarda olib borildi, Toshkent viloyati Parkent tumani "Zamona Ra'no" xo'jaligida yalpiz, tirnoqgul, moychechak va na'matak dorivor o'simliklarida uchraydigan kasalliklar hisob-kitob qilindi. Yalpizda fuzarioz ildiz chirish, 13,1%, un-shudring 12% va zang kasalligi 11,4% tashkil etdi. Tirnoqgulda ham fuzarioz, ildiz chirish 10,6% un shudring 17,6% tarqaganligi kuzatildi. Dorivor moychechak, na'matak o'simligiga zarar yetkazadigan kasalliklar hisob-kitob qildik. Parkent tumani "Qoraqalpoq" xo'jaligida ham yalpiz, tirnoqgul va dorivor moychechak o'stiriladigan maydonda asosan fuzarioz, ildiz chirish va un shudring uchratdik.

Dorivor o'simliklar yetishirilayotkan Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani "Qo'shtol" xo'jaliklarda yalpiz, na'matak, arslonquyruq va tirnoqgul o'simliklarida ham asosan fuzarioz, ildiz chirish 10,9-14,4%, un shudring 9,6-13,3%, zang kasalligi 7,9-22,1% gacha tarqaganligi kuzatildi.

Namangan viloyati Pop tumani "Ibn Sino" xo'jaligi ham bir qancha dorivor o'simliklar yetishtirishi kuzatildi va asosiy kasalliklar bo'yicha hisob-kitoblar olib borildi. Barcha yo'nalishli kuzatuv natijalari jadval 1da to'liq aks ettirilgan.

Jadval

Dorivor o'simliklarda asosiy kasalliklarni tarqalishi

2023 yil

№	O'simliklar	Tarqalishi,%				
		Fuzarioz chirish	Un- ring	Zang	Alter nariyoz	Septorioz
Toshkent viloyati, Parkent tumani "Zamona Ra'no" xo'jaligi						
1.	Yalpiz	13,1	12,1	11,4	-	-
2.	Tirnoqgul	10,6	17,6	-	3,1	-
3.	Moychechak	6,5	16,2	12,6	-	-
4.	Na'matak	-	10,1	10,1	-	4,1
Toshkent viloyati "Qoraqalpoq" xo'jaligi						
1.	Yalpiz	13,1	14,2	16,1	-	8,1
2.	Tirnoqgul	8,4	12,1	-	4,6	5,4

3.	Moychechak	9,6	15,6	-	-	-
Qashqadaryo viloyati Yakkabog' "Qo'shtol"xo'jaligi						
1.	Yalpiz	10,9	13,3	17,3	-	4,3
2.	Na'matak	-	10,5	22,1	-	5,4
3.	Arslonquyruq	13,6	11,4	7,0	-	4,9
4.	Tirnoqgul	14,4	9,6	-	3,4	-
Namangan viloyati Pop tumani "Ibn Sino"xo'jaligi						
1.	Na'matak	-	14,5	16,1	-	6,4
2.	Dastarbosh	16,1	16,4	8,4	-	-
3.	Valeriana	8,9	13,1	16,1	-	-
4.	Moychechak	14,3	10,9	-	2,3	-
5.	Tirnoqgul	12,1	14,5	-	-	-

Xulosa. Barcha o'simliklar qishloq xo'jalik ekinlaridan bo'lgani kabi dorivor o'simliklarda ham zamburug'lar kasalliklar hududlar bo'yicha tarqalganligi yo'nalishli kuzatuvlarda o'z isbotini topdi. Dorivor o'simliklar asosan fuzarioz ildiz chirish, un shudring, zang, alternarioz va septarioz kasalliklari bilan zararlanishi aniqlandi. Shu asosida dorivor o'simliklar kasalligiga qarshi ya'ni ekologik toza yoki organik toza mahsulot olish uchun uyg'unlashgan himoya tizimini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish talab etadi.

ADABIYOTLAR.

1. Xolmatov X.X., Xabibov. Uzbekiston dorivor usimliklari. Toshkent, 1971.
2. Dorivor va ozukabop usimliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash buyicha yo'riqnomalar (tuzuvchilar: B.Yo. Tuxtaev, T.X. Madkamov, A.A. Tulaganov, A.I. Mamatkarimov, A.V. Maxmudov, M.U. Allayarovlar) - Toshkent, 2015.-137 b.
3. Xoxryakov M.K. Metodicheskie ukazaniya po eksperimentalnomu izucheniyu fitopatogennix gribov. Leningrad, 1979.-77c.
4. Xoxryakov M.K., Dobrozrakova T.L., Stepanov K.M., Letova M.F. Opredelitel bolezney rasteniy. - L.: "Kolos", 1966
5. Muraveva D.A. Lekarstvennqe rasteniya Kavkaza.- Monografiya. Krasnodar, 1979.-375 s.
6. Orlovskaya Muchnistaya rosa vredonosnaya bolezn kalenduliy //Sb.Trudov VILAR, 2006.-t 39.-132-133 s.